



O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ TIZIMI

Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li

Qo'qon Universiteti

"Xalqaro turizm va iqtisodiyot" kafedrasи o'qituvchisi

Email: lionslar9233@gmail.com

+998999972326

Berdaliyev Olimbek Ulug'bek o'g'li,

Farg'ona davlat texnika universiteti "91-23 BI va A" guruhi talabasi

Email: olimbekberdaliyev11@gmail.com +998934842020

Xalilova Zarnigor Lutfullо qizi

Farg'ona davlat texnika universiteti El 89-23 M va MT guruh talabasi

Email: zarnigorxalilova10@gmail.com +998886624757

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi, uning asosiy turlari, soliq siyosati hamda ma'murchiligi haqida batafsil ma'lumot beriladi. Shuningdek, soliq tizimining dolzarb muammolari va istiqboldagi islohotlar muhokama qilinadi. Soliq tizimining soddalashtirilishi, elektron xizmatlarning joriy etilishi hamda kelajakdagи rejalashtirilgan islohotlarning iqtisodiy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Soliq tizimi, Soliq siyosati, Davlat soliqlari, Mahalliy soliqlar, Soliq ma'murchiligi, Yashirin iqtisodiyot, Soliq stavkalari, Davlat budgeti, Investitsion muhit, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi

Аннотация: В данной статье представлена подробная информация о налоговой системе Республики Узбекистан, ее основных видах, налоговой политике и администрировании. Также рассматриваются актуальные проблемы налоговой системы и будущие реформы. Освещаются вопросы упрощения налоговой системы, внедрения электронных услуг и экономическое значение запланированных реформ.




Ключевые слова: Налоговая система, Налоговая политика, Государственные налоги, Местные налоги, Налогоовое администрирование, Теневая экономика, Налоговые ставки, Государственный бюджет, Инвестиционный климат, Налоговый кодекс Республики Узбекистан.

Abstract: This article provides detailed information about the tax system of the Republic of Uzbekistan, its main types, tax policy, and administration. Additionally, it discusses the current issues of the tax system and future reforms. The article highlights the simplification of the tax system, the introduction of electronic services, and the economic significance of the planned future reforms.

Keywords: Tax system, Tax policy, State taxes, Local taxes, Tax administration, Shadow economy, Tax rates, State budget, Investment climate, Tax Code of the Republic of Uzbekistan.

O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o'yнaydi. 2023-yil ma'lumotlariga ko'ra, soliq tushumlari davlat budgetining 80% ga yaqin qismini tashkil etgan. Bu tizim davlat budgetini shakllantirish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va tadbirkorlik muhitini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

2022-2023 yillarda davlat budgeti daromadlari tuzilmasi



Manba: 2023-yil ijrosi hisoboti.

Soliq kodeksining 23-moddasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi hududida soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar amal qiladi hamda ular O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan joriy etiladi va bekor qilinadi. O‘zbekiston Respublikasida soliq tizimi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan boshqariladi. Soliqlar davlat budgetiga tushumning asosiy manbai hisoblanadi va ular quyidagi turlarga bo‘linadi:

- **Davlat soliqlari:** foyda solig‘i (15%), qo‘silgan qiymat solig‘i (QQS) (12%), aksiz solig‘i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (12%).
- **Mahalliy soliqlar va yig‘imlar:** yer solig‘i, mulk solig‘i, suv resurslaridan foydalanish solig‘i va boshqa yig‘imlar.

Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘lovchisi bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi hujjatlariga muvofiq, mulkchilik shaklidan qat’i nazar yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Mol-mulk solig‘i va yer solig‘i O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga binoan joriy etiladi va uning butun hududida undiriladi.

Ushbu soliqlar stavkalarining miqdori O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori asosida belgilanadi.



Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i, jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, ayrim turdagи tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagи xizmatlarni ko‘rsatish huquqi uchun yig‘imlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi davlat hokimiyati organlari, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari kengashlari tomonidan joriy etiladi. Ushbu soliqlar va yig‘imlar stavkalarining eng yuqori miqdorlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori asosida belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasining butun hududida ayrim mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarini umumiyl, qat’i stavkalarda belgilashi mumkin.

Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar stavkalari soliq to‘lovchilarga Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi va uning quyi organlari tomonidan belgilangan tartibda yetkaziladi.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i, jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, ayrim turdagи tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagи xizmatlarni ko‘rsatish huquqi uchun yig‘imlarning miqdorlari, ularni undirish tartibi, ular bo‘yicha qo‘shimcha imtiyozlar taqdim etish Qoraqalpog‘iston Respublikasi davlat hokimiyati organlari va viloyatlar hamda Toshkent shahar xalq deputatlari kengashlari tomonidan amaldagi qonun hujjalariiga muvofiq belgilanadi.

2024-yil 1-sentabr holatiga ko‘ra, davlat budgetiga jami 118,702.0 milliard so‘mdan ortiq soliq tushumlari kelib tushgan. Soliq tushumlarining asosiy qismini QQS (taxminan 22.2%) va foyda solig‘i (taxminan 25.3%) tashkil etadi.

Soliq siyosati – davlatning soliqqa tortish tizimi borasidagi farmon, qonun va qarorlarini davlat iqtisodiy siyosatiga mos ravishta ishlab chiqish va qabul qilish, ularning ijrosini ta’minlashni tashkil qilish bilan bog’liq chora tadbirlar, faoliyatlar yig‘indisidir.

Soliq siyosati tarkiban soliqlarni joriy etish, soliqqa oid huquqiy baza yaratish, joriy etilgan soliqlar va soliqsiz to‘lovlarini amaliyotda ishlash mexanizmini shakllantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan davlatning tegishli vakolatli



organlari tomonidan kompleks tarzda olib boriladigan chora-tadbirlar yig'indisidir. Mamlakat soliq tizimi xususiyatlari, yo'nalishlari, qanday soliqlarning joriy etilishi, ular o'rtasidagi nisbatni ta'minlash kabi masalalarni soliq siyosati belgilab beradi.

2019-yildan boshlab O'zbekistonda soliq kodeksi isloq qilindi va yangi kodeks joriy etildi. Natijada soliq stavkalari kamaytirilib, soliq to'lovchilar uchun qulay sharoitlar yaratildi.

O'zbekistonda soliq ma'murchiligi avtomatlashtirilgan bo'lib, ko'plab jarayonlar elektron shaklga o'tkazilgan. Soliq to'lovchilar uchun my.soliq.uz portali orqali soliq hisoboti topshirish, soliq yukini hisoblash va onlayn to'lov qilish imkoniyati mavjud. 2023-yilda ushbu portal orqali 1 milliondan ortiq soliq to'lovchilar o'z hisoblarini yuritgan. Bu esa korruptsiyaning oldini olishga hamda soliq yig'imlarini oshirishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda soliq tizimida hal qilinishi lozim bo'lgan ayrim muammolar mavjud. Xususan, ayrim tadbirkorlar uchun soliq yukining og'irligi, yashirin iqtisodiyotning keng tarqalganligi va soliqlarning to'liq yig'ilmasligi muammolari kuzatiladi. 2022-yilgi statistikaga ko'ra, yashirin iqtisodiyot darajasi 20-25% atrofida baholangan. Shu sababli, kelajakda soliq to'lovlarini yanada soddallashtirish, soliq imtiyozlarini adolatli taqsimlash va soliq nazoratini kuchaytirish rejalashtirilmoqda.

2024-yildan boshlab kichik biznes va startaplar uchun soliq imtiyozlarini kengaytirish bo'yicha hukumat tomonidan farmon qabul qilinishi rejalashtirilgan. Ushbu islohotlar soliq tushumlarini oshirish va yashirin iqtisodiyotni kamaytirishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi davlat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo'lib, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan soliq islohotlari biznes muhitini yaxshilash, investitsiyalarini jalb qilish va soliq tushumlarini oshirishga qaratilgan. 2023-yilda jami 10 mingdan ortiq tadbirkorlar soliq tizimining soddallashtirilgan variantidan foydalangan. Kelajakda bu sohadagi islohotlarning yanada takomillashtirilishi mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishiga xizmat qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vahobov A.V, Jo‘rayev A.S (2009). SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH. 52-54
2. Turg’unov O.K, Xayitov X.S (2022). SOLIQ HUQUQI. 105-106
3. Mexmonaliyev, U. (2024). ICHKI AUDITNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI. *University Research Base*, 277–279. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/515>
4. Mexmonaliyev Ulug‘bek Erkinjon o‘g‘li. (2024). ICHKI AUDITNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI. *University Research Base*, 810–811. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/228>
5. Mexmonaliyev U.E. (2024). ICHKI NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISHNING USULLARI. Экономика и социум, (8 (123)), 135-138.
6. Mexmonaliyev, Ulug‘Bek Erkinjon O‘G‘Li (2024). ICHKI AUDITNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4 (7), 15-21.
7. Omonjon, U. (2024). O‘ZBEKISTONDA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI. *Universitet tadqiqot bazasi* , 544–548.
8. Umarov, O. (2024). O‘ZBEKISTONDA MADANIY TURIZM ISTIQBOLLARI. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 13, 123–125.
<https://doi.org/10.54613/ku.v13i.1039>